



UDC 373

**MECHANISMS FOR INCREASING LEGAL LITERACY THROUGH THE
CONTINUING EDUCATION SYSTEM (ON THE EXAMPLE OF THE PRE-
SCHOOL EDUCATION SYSTEM)**

**UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMI ORQALI HUQUQIY SAVODXONLIKNI
OSHIRISH MEXANIZMLARI (MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI
MISOLIDA)**

Panferova Irina Vitalievna

PhD, professor at Bucheon University in Tashkent

ORCID: 0000-0002-5049-5078

E-mail: teacheriren2@gmail.com

Komilova Muslima

Master's student at Bucheon University in Tashkent

mirjalilovamuslima03@gmail.com

Abstract. The article discusses the scientific and theoretical foundations of improving legal literacy in the continuing education system and the mechanisms for effectively implementing this process in preschool educational organizations. The importance of the cooperation of teachers, parents and the public in the formation of legal awareness and culture in students is also analyzed.

Keywords: continuing education system, legal literacy, preschool education, legal awareness, legal education, legal concept, basic mechanisms.

Annotatsiya. Maqolada uzluksiz ta'lim tizimida huquqiy savodxonlikni oshirishning ilmiy-nazariy asoslari hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bu jarayonni samarali amalga oshirish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, tarbiyalanuvchilarda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishda pedagog, ota-ona va jamoatchilik hamkorligining ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: uzluksiz ta'lim tizimi, huquqiy savodxonlik, maktabgacha ta'lim, huquqiy ong, huquqiy tarbiya, huquqiy ta'lim, huquqiy tushuncha, asosiy mexanizmlari.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida jamiyatning har bir a'zosida huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonunlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Huquqiy ong va huquqiy madaniyat – har bir fuqaroning ma'naviy yetukligi va jamiyat barqarorligi garovidir".

Shu nuqtai nazardan, uzluksiz ta'lim tizimi – insonning bolalikdan to mehnat faoliyatigacha bo'lgan barcha bosqichlarini qamrab olgan yagona tarbiya va ta'lim maydoni sifatida huquqiy savodxonlikni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Hozirgi vaqtda huquqiy ta'limning amaldagi joriy holati va to'plangan tajribalar tahlilidan quyidagilar ma'lum bo'ladi. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, ta'lim oluvchilarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda.

Xususan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti. Uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta'minlanmagan.

Umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida ta'lim olayotgan o'quvchilarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odoq-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashilmadi.

Maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida ta'lim olayotgan o'quvchilarning huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarning umumiy tusda belgilanganligi hamda ularni amalga oshirishning aniq ta'sirchan mexanizmi mavjud emasligi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarning samarasiz olib borilayotganligini ko'rsatadi.



Bundan tashqari, hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida ta'lim olayotgan o'quvchilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ'ibotning ilg'or va ta'sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan yetarli darajada foydalanilmayapti.

Ta'lim bosqichlari o'quvchi va tarbiyalanuvchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir ishlar samaradorligini yanada takomillashtirish, ularning ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, shuningdek, aholini, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish bo'yicha mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarimizni uzluksiz davom ettirishimiz zarur. Huquqiy tarbiyani maktabgacha ta'lim tizimidan boshlashimiz, bu boradagi ilk ko'nikmalar ona allasi kabi farzandlarimiz qalbidan umrbod joy olishi darkor.

Har bir soha va yo'nalish, ta'limning barcha bosqichlari uchun huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslangan dasturi tayyorlanishi kerak. Bunda, avvalambor, Konstitusiyani o'rganishga jiddiy yondashish lozim. Maktabgacha ta'lim uchun "Konstitusiya olamiga sayohat", Umumta'lim maktablari uchun "Konstitusiya alifbosi", "Konstitusiya asoslari" kabi darsliklarni yaratish zarur. Ushbu fanlardan dars beradigan o'qituvchilarni tayyorlashda ularning siyosiy, huquqiy va ma'naviy saviyasiga alohida ahamiyat berish lozim. Shuningdek, hayotdagi adolat tantanasi, qonuniy haq-huquqlar tiklangani haqida qiziqarli ko'rsatuvlar, seriallar, badiiy filmlar, teatr asarlari yaratish ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Birinchidan, inson huquqlarini ta'minlash samaradorligini yanada oshirish uchun milliy strategiyamiz bo'lishi lozim. Keyingi yillarda mamlakatimizda bu borada keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimida huquqiy tarbiya

Maktabgacha ta'limning maqsadi maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, huquqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish ijodiy qobiliyatlarini ochib berish, maktab ta'limiga tayyorgarligini ta'minlash va ishtiyoqini tarbiyalashdan iborat.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy rivojlantirishni ta'minlaydigan zamonaviy ta'lim dasturlari, ilg'or axborot texnologiyalarini joriy etish, tarbiyalanuvchilarni maktabga tayyorlash darajasini oshirish, maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy standartlarini yaratish bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalaradan biri bo'lib hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida huquqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari

“Ilk Qadam” davlat o'quv dasturi asosida yaratilgan “Konstitusiya olamiga sayohat” dasturi bo'yicha ishlab chiqilgan parsial o'quv dasturi va o'quv-metodik majmua bo'yicha barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini tashkil qilish lozim.

“Konstitusiya olamiga sayohat” dasturi va uslubiy qo'llanmasi zaminida bolalarga tug'ilib o'sgan joylariga, o'z shahri va qishloqlariga nisbatan muhabbat uyg'otish, o'z uyi, ko'chasini asrab avaylash, ularga zarar yetkazmaslik hissini tarbiyalash, Ona-Vatanga nisbatan muhabbat uyg'otish, bolalarda harbiy qo'shinlarga nisbatan qiziqish uyg'otish orqali botirlik, jasurlik, vatanparvarlik tuyg'usini singdirib borish, bolalarga tartib-intizom qoidalarini o'rgatish, yaxshi, yomon, mumkin emas degan tushunchalarini tushunish, maktabgacha yoshdagi bolalarning huquq, burchlari nimadan iborat ekanligi, O'zbekiston Respublikasining ramzlari: bayroq, gerb, madhiya mazmun-mohiyatini anglash va hurmat bilan qarash, ma'naviy merosni, tabiatni asrash va avaylash kabi qator axloq-odob qoidalari, yo'l -yo'riqlari yotadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida Konstitusiyaning o'rganish bo'yicha "Konstitusiya olamiga sayohat" maxsus kursi o'rgatiladi. Har bir bola o'zining inson — eng ulug' zot ekanligini, boshqa tirik mavjudotlardan nima bilan ajralib turishini go'dakligidan qalbi bilan his qilishi kerak. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida “Konstitusiya olamiga sayohat” dasturini o'rganish 2 bosqichda bolalar bilan amalga oshiriladi:

- Katta yosh (5-6 yosh)
- Maktabga tayyorlov davri (6-7 yosh)

Dasturning maqsadi bolalarda, umumiy axloq meyorlari talablariga javob beradigan, ularning shaxs sifatida kamol topishiga asos bo'la oladigan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Dasturning vazifalari:

- bolalarda hayotdagi ijobiy va salbiy holatlarga nisbatan sezgirlikni tarkib

toptirish, tanish va yaqin insonlarning telyefon raqamlarini bilishlariga erishish;

- umumiy ahloq ko‘nikmalarini rivojlantirish, kattalar, tengdoshlari fikri bilan hisoblashish, zarur bo‘lganda o‘zining qarashlarini himoya qilishga o‘rgatish;

- maishiy texnika xavfsizlik qoidalariga rioya qilish;

- “birovniki”, “bunga tegish mumkin emas” degan tushunchalarni ma’nosini anglash;

- yo‘l harakati xavfsizligi qoidalariga rioya qilish;

- ko‘chada o‘yin chog‘ida ota-onasi nazoratisiz biron nojo‘ya harakatni qilmaslik;

- yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish;

- maishiy va boshqa texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish (qat’iyan taqiqlangan narsalar: gugurt, gaz plitasini yoqish, pechka yoqish, elektr rozetkalari va elektr jihozlardan bolalarning foydalanishlari qat’iyan man qilinganligini anglab yetish);

- davlat, uning ramzlari, Konstitusiya va qonunlar to‘g‘risidagi ilk tasavvurlarini tarkib toptirish.

Maktabgacha yoshidagi bolalarga ilk huquqiy ta’lim-tarbiya berishda bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur. Huquqiy qoidalarni bayon qilib berishda o‘yin usullaridan foydalanish tavsiya qilinadi. Bolalarga ilk huquqiy tushunchalarni berish orqali ularni (yoshiga mos) qonun-qoidalarga rioya qilishlariga erishiladi. Huquqiy ta’lim integral ta’lim tarzida katta (5-6 yosh) va maktabga tayyorlov davr (6-7 yosh)larida “Tabiatshunoslik va ekologiya asoslari”, “Nutq, o‘qish va yozish malakalarini rivojlantirish”, “Badiiy adabiyot” ta’limiy faoliyatlari mavzulariga singdirib, bog‘lab olib boriladi.

“Konstitusiya olamiga sayohat” dasturining katta yosh davri (5-6 yosh) uchun ta’lim -tarbiyaviy faoliyat mazmuni:

- Bolalarning tug‘ilib o‘sgan Ona-Vatani, shahar, qishlog‘i, mahallasi, xalqi, urf-odatlarini, tarixiy joylari haqida ilk tushunchalar berish;

- O‘zbekiston Respublikasi ramzlari: bayroq, gerb, madhiya bilan tanishtirish hamda ularga nisbatan hurmat bilan qarashni tarbiyalash;

- Bolalarda harbiy qo‘shinlarga nisbatan qiziqish uyg‘otish orqali botirlik, jasurlik, vatanparvarlik tuyg‘usini singdirib borish;

- Bolalarga tartib-intizom qoidalarini o‘rgatishda davom etib, yaxshi, yomon, mumkin emas degan tushunchalarini badiiy adabiyot orqali tushuntirib borish;



- Oila a'zolari: ota-ona, aka-uka, opa-singil, qon-qarindoshga bo'lgan hurmat hissi;
- “birovniki”, “bunga tegish mumkin emas” degan tushunchalarni ma'nosini anglash;
- yo'l harakati xavfsizligi qoidalariga rioya qilish(ko'cha qoidalariga rioya qilish, svetofoarning ranglari va ularning vazifalari, davlat avtomobil nazorati xodimi-militsioner vazifasi);
- ko'chada o'yin chog'ida ota-onasi nazoratisiz biron nojo'ya harakatni qilmaslik;
- yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish(qat'iyon taqiqlangan narsalar: gugurt, gaz plitasini yoqish, pechka yoqish qat'iyon man qilinganligini anglab yetish);
- maishiy va boshqa texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish (qat'iyon taqiqlangan narsalar:elektr rozetkalari va elektr jihozlardan bolalarning foydalanishlari qat'iyon man qilinganligini anglab yetish);
- xalqi, urf-odatlar, tarixiy joylarni bilish;
- O'zbekiston Respublikasining ramzlari: bayroq, gerb, madhiya mazmun-mohiyatini anglash va hurmat bilan qarash zarurligi;
- milliy bayramlar: Mustaqillik kuni, Xotira va qadrlash kuni, Navro'z bayramlari haqida tushuncha;
- ma'naviy merosni asrash zarurligi;
- Tabiatni asrash va avaylash hissini uyg'otish;
- O'simliklarni parvarish qilish: ularni sug'orish, chopish, tagini yumshatish va begona o'tlardan tozalash;
- O'simliklarni payhon qilish yomon odat ekanligini bilish;
- Hayvon, qushlarni asrash, avaylash har bir inson vazifasi ekanligini bilish: ularni parvarish qilish, och qoldirmaslik;
- Qushlar insonlar uchun foydali ekanini tushuntirish;
- “Qizil kitob” muhofaza ramzi ekanini bilish;
- “Qushlar bayrami”, “Gullar bayrami”, “Navro'z bayrami” haqida tushunchaga ega bo'lish;
- Har yili 14- yanvar “Vatan himoyachilari kuni” sifatida nishonlanishi haqida;
- Vatan himoyachilari: askarlar, chegarachilar piyodalar va tankchilar haqida;
- Bolalar ongiga Vatan himoyachilari kim ekanligini singdirish, buning uchun

ular sog'lom, baquvvat, qo'rqmas, botir bo'lib voyaga yetishlari zarurligini anglatish;

- Harbiylarga nisbatan muhabbat uyg'otish.
- “Konstitusiya olamiga sayohat” dasturining maktabga tayyorlov davri (6-7 yosh) uchun ta'lim -tarbiyaviy faoliyat mazmuni:
 - Mustaqil O'zbekiston haqidagi tushunchalarini kengaytirish, erkinlik, ozodlik, o'z davlat tiliga ega bo'lish, milliy bayramlar to'g'risida tushunchalar berib borish;
 - O'zbekiston Respublikasining ramzlari: bayroq, gerb, madhiya haqidagi olgan bilimlarini yanada mustahkamlash;
 - Konstitusiyamizning bolalarga o'rgatiladigan moddalarining (1, 4, 5, 6,8, 37, 40, 41,47, 49, 50, 52, 55, 89, 122, 126)mazmuni asosida suhbatlar tashkil etish;
 - “birovniki”, “bunga tegish mumkin emas” degan tushunchalarni ma'nosini anglash;
 - yo'l harakati xavfsizligi qoidalariga rioya qilish(ko'cha qoidalariga rioya qilish, svetoforming ranglari va ularning vazifalari, davlat avtomobil nazorati xodimi-militsioner vazifasi);
 - ko'chada o'yin chog'ida ota-onasi nazoratisiz biron nojo'ya harakatni qilmaslik;
 - yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish(qat'iyon taqiqlangan narsalar: gugurt, gaz plitasini yoqish, pechka yoqish qat'iyon man qilinganligini anglab yetish);
 - maishiy va boshqa texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish (qat'iyon taqiqlangan narsalar:elektr rozetkalari va elektr jihozlardan bolalarning foydalanishlari qat'iyon man qilinganligini anglab yetish);
 - Bolalar qalbida o'zbek millati, uning tili, urf-odatlariga mehr-muhabbat va hurmat hislarini tarkib toptirish, milliy faxrlanish hissini tarbiyalash. Shaxs sifatida bolani o'zini anglashga o'rgatish;
 - O'zbek xalqi va davlat tilini hurmatlash;
 - O'zbekiston Respublikasi xududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analarini hurmatlash;
 - “Til bayrami» haqida tushuncha;
 - Davlatimizning nomi, uning ramzlarining ma'no-mazmunini anglash va ularga nisbatan hurmat bilan qarash zarurligi;
 - Davlatimiz ramzlaridan faxrlanish va ularni hamisha himoya qilish;
 - Madhiya matnini yaratgan shoirni, musiqasini yaratgan bastokarning ismi, shariflarini bilish;

- Davlatimiz ramzlarining tavsifi haqida tushunchaga ega bo‘lish;
 - Bolalar O‘zbekiston Respublikasining poytaxti-Toshkent shahri ekanligini anglashlari zarur;
 - Toshkent shahri haqida ma’lumotga ega bo‘lishlari kerak: Toshkent –qadimiy shahar, unda Mustaqillik maydoni, Amur Temur xiyoboni, xiyobonda A. Temurning haykali bor. Xiyobon yaqinida Temuriylar tarixiy muzeyi bor. Bundan tashqari shaharda A. Navoiy nomli milliy bog‘, bir necha me’moriy yodgorliklar bor;
 - Shifokor mehnati haqida tushunchalarni boyitish;
 - Har kim bilim olish huquqiga egaligi haqida tushuncha berish;
 - «Maktab» mavzularida lug‘atni faollashtirish. Maktabda bolalar ilm- hunarli bo‘lishi, ilm-hunar orqali inson ko‘p narsalarni bilib olishi haqida tushuncha berish. Ustozlarni hurmat qilish, ularning o‘g‘itlariga quloq solish haqida tushuncha berish;
 - Burch so‘zi qanday ma’no bildirishi;
 - Maktabgacha yoshdagi bolalarning burchlari nimadan iborat ekanligi;
 - Yaxshi tarbiyali bola bo‘lish, axloqiy qoidalarga rioya qilish kabi vazifalarni anglash;
 - Ota-onani hurmatlash;
 - Har yili 14- yanvar “Vatan himoyachilari kuni” sifatida nishonlanishi haqida;
 - Vatan himoyachilari: askarlar, chegarachilar piyodalar va tankchilar haqida;
 - Bolalar ongiga Vatan himoyachilari kim ekanligini singdirish, buning uchun ular sog‘lom, baquvvat, qo‘rqmas, botir bo‘lib voyaga yetishlari zarurligini anglatish;
 - Harbiylarga nisbatan muhabbat uyg‘otish;
 - Maktabgacha yoshdagi bolalarning huquqlari nimadan iborat ekanligi haqida.
 - “Qizil kitob” muhofaza ramzi ekanini bilish;
 - “Qushlar bayrami”, “Gullar bayrami”, “Navro‘z bayrami” haqida tushunchaga ega bo‘lish.
- “Konstitutsiya olamiga sayohat” dasturi asosida ta’limiy -tarbiyaviy jarayondan so‘ng tarbiyalanuvchilarda quyidagi natijalar kuzatiladi:
- Bolalar O‘zbekiston Respublikasining ramzlari: bayroq, gerb, madhiya haqida ilk tushunchalarga ega bo‘ladilar, ularga nisbatan hurmat bilan qarash hissi tarbiyalanadi;
 - Bolalar qalbida o‘zbek millati, uning tili, urf-odatlariga mehr-muhabbat va hurmat hislari, milliy faxrlanish hissi tarbiyalanadi;

– Bolalar ongida Vatan himoyachilari kim ekanligi, ularni sogʻlom, baquvvat, qoʻrqmas, botir boʻlib voyaga yetishlari zarurligini anglaydilar, harbiylarga nisbatan muhabbat hissi tarbiyalanadi;

– Maktabgacha yoshdagi bolalarning huquqlari, burchlari nimadan iborat ekanligi haqida ilk tushunchalar paydo boʻladi;

– “birovniki”, “bunga tegish mumkin emas” degan tushunchalarni maʼnosini anglaydilar;

– yoʻl harakati xavfsizligi qoidalariga rioya qilish(koʻcha qoidalariga rioya qilish, svetoforming ranglari va ularning vazifalari);

– koʻchada oʻyin chogʻida ota-onasi nazoratisiz biron nojoʻya harakatni qilmaslik keakligi haqida tushunchalar paydo boʻladi.

Huquqiy savodxonlikni oshirishning asosiy mexanizmlari

Maktabgacha taʼlim tizimida huquqiy tarbiyani samarali tashkil etish quyidagi mexanizmlar orqali amalga oshirilishi mumkin:

1. Integratsiyalashgan taʼlim mazmuni:

– Huquqiy tushunchalarni “Tabiatshunoslik va ekologiya asoslari”, “ Nutq, oʻqish va yozish malakalarini rivojlantirish”, “ Badiiy adabiyot” taʼlimiy faoliyatlariga uygʻunlashtirish;

– Har kunik oʻyin faoliyatlarida bolalarni qoidalarga rioya qilishga oʻrgatish (navbat kutish, muloqot etikasi va h.k.).

2. Pedagoglarning huquqiy kompetensiyasini oshirish:

– Maktabgacha taʼlim tashkiloti xodimlari uchun huquqiy treninglar, seminarlar tashkil etish;

– Huquqiy madaniyatni oshirish boʻyicha metodik qoʻllanmalar ishlab chiqish.

3. Ota-onalar bilan hamkorlik:

– “Oilada huquqiy madaniyat” mavzusidagi uchrashuvlar, maʼruzalar;
– Ota-onalar uchun bolalar huquqlari haqida axborot burchaklari va bukletlar tayyorlash.

4. Ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik ishtirokini taʼminlash:

– Huquqni muhofaza qilish organlari, NNT va mahalla faollari bilan hamkorlikda tarbiyaviy tadbirlar oʻtkazish;
– Bolalar huquqlarini himoya qilish kuni munosabati bilan interaktiv oʻyinlar, rasm tanlovlari tashkil etish.

5. Amaliy samaralar

Bu mexanizmlarni bosqichma-bosqich joriy etish natijasida:

- bolalarda qoidalarga bo‘lgan hurmat va ijtimoiy mas’uliyat hissi kuchayadi;
- pedagoglarda huquqiy madaniyat va tarbiyaviy usullar takomillashadi;
- ota-onalarning huquqiy bilim darajasi oshadi;
- ta’lim tashkiloti atrofida huquqiy ongli muhit shakllanadi.

Uzluksiz ta’lim tizimi orqali huquqiy savodxonlikni oshirish – fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishning eng samarali yo‘lidir. Har bir ta’lim bosqichida huquqiy tarbiya tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilsa, jamiyatda qonunga hurmat, adolat va mas’uliyat hissi kuchayadi. Bu esa huquqiy demokratik davlat barpo etishda muhim omil hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tizimida huquqiy savodxonlikni oshirish uzluksiz ta’lim tizimining asosiy bo‘g‘ini sifatida inson huquqlariga hurmatni bolalikdan shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda pedagoglar, ota-onalar va jamoatchilikning o‘zaro hamkorligi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Huquqiy tarbiyani erta yoshdan boshlash jamiyatda qonun ustuvorligi va fuqarolik madaniyatini mustahkamlashning muhim shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O‘zbekiston, 2023-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni. 2017-yil 4-yanvar.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5729-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-son Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2008-yil 7-yanvar.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-maydagi PQ-4736-sonli “Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.



7. Mirziyoev Sh.M. (2018) “Konstitutsiya - erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir”. – T.: “O‘zbekiston”.
8. Mirziyoyev Sh.M. (2017) “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. – T.: “O‘zbekiston”.
9. Qurbonov A. (2021) “Huquqiy madaniyat asoslari”. – T.: Akademnashr.
10. Maxmudova D., Fayzullayeva M., Rustamova M. (2019). “Konstitutsiya saboqlari” dastur va uslubiy qo‘llanmasi. Toshkent.